

HOZIRGI NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTLARNING QIYOSIY TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7884146>

**Ochilova Xayriniso Rofi qizi**

*SamDCHI magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola tilshunoslikning morfologiya sohasiga bag'ishlangan bo'lib, bunda nemis va o'zbek tilidagi otlarda mantiqiy va grammatik miqdor nemis va o'zbek tillarida atoqli va kishi otlarida son, jamlash otlari haqida gap boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Egalik, son, rod, kelishik va noaniqlik va aniqlik kategoriyalari*

**Annotation:** *This article is devoted to the field of morphology of linguistics, in which logical and grammatical quantity in German and Uzbek nouns, number and plural nouns in German and Uzbek are discussed.*

**Key words:** *Possession, number, gender, agreement and categories of uncertainty and certainty*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена морфологической области языкознания, в которой обсуждаются логическая и грамматическая величина в немецких и узбекских существительных, число и множественное число существительных в немецком и узбекском языках.*

**Ключевые слова:** *владение, число, род, согласие и категории неопределенности и определенности.*

Har bir tilda so'zlar leksik-semantik xususiyatlari, morfologik belgilari, sintaktik funksiyalariga tayangan holda ayrim gruppalariga so'z turkumlariga ajratiladi. Bu jihatdan ular ot, son, sifat, fe'l kabi bir necha gruppalariga bo'linadi. So'zlarning bunday gruppalari grammatikada so'z turkumlari deb ataladi. So'zlarning biror turkumga mansubligini aniqlash va ko'rsatishda ularning o'ziga xos grammatik va semantik belgilari, qanday so'roqqa javob bo'lishi asos qilib olinadi.

Nemis va o'zbek tillaridagi barcha so'zlar muhim grammatik belgilari va asosiy leksik-semantik xususiyatlariga qarab ikki katta to'daga bo'linadi. Ular mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar nomi bilan ataladi. Tilimizda mustaqil so'zlar to'dasiga ham va yordamchi so'zlar to'dasiga kirmaydigan, alohida bir to'dani tashkil qiluvchi undov-mimikalar, tasviriy so'zlar va ba'zi modal so'zlar ham uchraydi. Predmet va harakat tushunchalarini yoki belgi, miqdor ma'nosini ifodalaydigan, gapda mustaqil so'roqlarga javob bo'lib kelib, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi kabi gap bo'laklari vazifasida qo'llana oladigan der Tisch - stol, der Baum - daraxt, arbeiten - ishlamoq, ich - men, zehn - o't, schön chiroyli kabi so'zlar mustaqil so'zlar deyiladi.

Ot predmetlik tushunchasini ifodalovchi mustaqil soz turkumidir. Ot turkumidagi sozlar predmet tushunchasini nemis tilida son, egalik, rod, kelishik va aniqlik noaniqlik kabi kategoriyalar orqali ifodalasa, ozbek tilida bu narsa egalik, son, kelishik

kategoriyalari orqali ifodalanadi. Har ikkala tilda ham birlik sondagi otlar muayyan predmetni, hodisani yoki tushunchani ifodalab keladi: (das Heft - daftar, die Schule - maktab, das Kind - bola). Bundan tashqari nemis tilidagi ayrim birlik sonda turgan otlar jamlovchi manosini ham anglatib kelishi mumkin. Masalan: die Menschheit - insoniyat, das Volk xalq. Ozbek tilida esa grammatik nuqtai nazardan oz ifodasiga ega bolgan jamlovchi manosidagi otlar yoq. Ular faqat leksik tomondan oz ifodasiga ega boladilar. Qiyoslang: xalq - das Volk bola-chaqa die Kinderwelt.

Ko'plik sondagi otlar har ikkala tilda ham bir qator otlarni ifodalab keladi: die Kinder bolalar; die Bücher kitoblar. Otlar xos bo'lgan yana bir xususiyatlardan biri, ularning har qanday gap bo'lagi vazifasini bajarib kelishidir.

Nemis tilidagi ayrim otlarnigina hisobga olmaganda barcha otlar artikl bilan ishlatiladi. Chunki aynan artikl otga xos bolgan barcha grammatik kategoriyalarni ko'rsatib keladi. Artikl otlarning aniq yoki noaniqligidan tashqari otlarning qaysi kelishikda turganligini korsatib keladi. Chunki hozirgi zamon nemis tilida otlarning kelishik qo'shimchasi deyarlik rivojlanmagan. Qiyoslang:

Jenskiy rod, Kuchsiz turlanish ,

Kuchli turlanish

N. die Frau der Knabe das Kind

G. der Frau des Knaben des Kindes

D. der Frau dem Knaben dem Kind (e)

Ak. die Frau den Knaben das Kind

Otlarning ko'plikda turlanishi:

N. die Frauen Knaben Kinder

G. der Frauen Knaben Kindern

D. den Frau en Knaben Kinder

Ak. die Frauen Knaben Kinder

Bundan tashqari artikl otlarning qaysi rodga mansubligini korsatuvchi yagona vosita bolib hisoblanadi. Qiyoslang: der Hund das Heft, die Tür usw. Artikl yana otlarning sonini ham korsatib keluvchi belgi bolib hisoblanadi. Bunda ayrim paytlar otlarning umlaut yoki tegishli qoshimcha olish holatlari ham kuzatiladi. Qiyoslang:

das Heft die Hefte; das Buch die Bücher; der Vogel die Vögel.

Ayrim paytlar faqat birgina artikl otlarning koplik sonda ekanligini korsatuvchi yagona belgi ham bolib kelishi mumkin. Masalan: das Mittel die Mittel, der Wagen die Wagen

Nemis va ozbek tillaridagi otlarga xos bolgan grammatik kategoriyalarni qiyoslash shuni korsatadiki, nemis tilida rod kategoriyasi mavjud bolgan holda u ozbek tilida yoq. SHuningdek ozbek tilida egalik kategoriyasi mavjud bolgan holda, u nemis tilida mavjud emas. Son va kelishik kategoriyasi esa har ikkala tilga ham xosdir.

Nemis tiliga leksik-grammatik yol bilan hosil qilinadigan jonli-jonsiz predmet kategoriyasi xos. Bu narsa wer? yoki was? soroqlari orqali aniqlanadi. Masalan: Wer sitzt dort?, Dort sitzt Karim.

O'zbek tilida ham otlar jonli yoki jonsiz guruhlarga ajratiladi. Biroq bu erda faqat fikrlash qobiliyatiga ega bolgan jonli predmetlarga (insonlarga) nisbatan kim? sorogi ishlatiladi. Shuning uchun aynan mana shu soroqqa javob boladigan otlar jonli, qolganlari esa jonsiz deb yuritiladi.

Wer?, was? soroq sozlarining ishlatilishi borasida nemis va ozbek tillarida ayrim farqlar mavjud. Chunonchi, nemis tilida wer? va was? soroq sozlari nemis tilida faqat birlik formada ishlatilsa, ular o'zbek tilida birlik va ko'plik ko'rinishlarida qo'llaniladi. Qiyoslang:

Wer kommt? - Kim kelayapti? Kimlar kelayapti?

Der Student kommt. - Talaba kelayapti. Talabalar kelayapti.

Aynan mana shu tafovut nemis tilini organuvchi ozbeklar uchun ayrim chalkashliklarni keltirib chiqaradi.

Grammatik rod kategoriyasi faqat nemis tiligagina xosdir. Bu tilda barcha otlar uch guruhga ajratiladi. Ular: mujskoy, jenskiy va sredniy rodlardir. Grammatik rod nemis tilida sintaktik yol orqali belgilanadi, yani buning uchun sifat, olmosh, son va osha ot bilan birikuvchi yana bir ikkinchi ot yordamga keladi. Masalan: ein grüner Wald, ein breites Fenster, eine breite Tür, dieses Buch, diese Wiese.

Nemis tilida otning grammatik rodini korsatuvchi asosiy belgi bu artikldir. Jonli otlarni rodga ajratish uchun ularning biologik jinsi asos qilib olinadi. Masalan:

der Knabe, der Vater, der Student, der Mann, der Fahrer, die Mutter, die Tochter, die Frau, die Studentin, die Tante usw.

Atoqli otlarning rodini aniqlashda shu narsa kozga tashlanadiki, kopincha ulardagi rod va jins belgilari bir-biriga mos tushadi. Qiyoslang: der Ochs hokiz; die Kuh sigir. der Mann erkak kishi; die Frau ayol kishi.

Biroq bu narsani turdosh otlarga nisbatan aytib bolmaydi. Chunki bir xil korinishga va bir-biriga oxshash bolgan ayrim otlar turli rodlarga mansub bolishi mumkin:

der Tisch, das Fenster, die Tür.

Rod tushunchasi har ikkala tilda ham leksik yol bilan oz ifodasiga ega bolishi mumkin. Qiyoslang: Ota - der Vater; ona - die Mutter; ogil bola - der Knabe, qiz bola das Mädchen; hokiz der Ochs; sigir die Kuh; xoroz der Hahn; tovuq das Huhn.

Sintaktik yol bilan ham rod tushunchalarini bir-biridan ajratish mumkin. Qiyoslang:

tikuvchi erkak - der Schneider, tikuvchi ayol - die Schneiderin

o'qituvchi (erkak) - der Lehrer, o'qituvchi (ayol) - die Lehrerin

Morfologik yol bilan ham ozbek tilida rodlarni bir-biridan ajratish mumkin. N.K.

Dmitriev buning ikkita yoli borligini ko'rsatadi [Dmitriev, 1952: 124]:

a) arab tilidan kirib kelgan a suffiksi orqali:

Mujskoy rod: Jenskiy rod:

Hakim - Hakima, Sharif- SHarifa

Bu xildagi uslub rus tilida mavjud bolgan holda, u nemis tilida yoq. Masalan:

Aleksandr - Aleksandra, Valentin - Valentina

b) familiyalarga qoshiladigan a fleksiya orqali:

Valiev - Valieva, Aliev - Alieva

Nemis tilida buning ham ekvivalenti yoq. Nemis tilidagi qoshma otlarning grammatik rodini ozlashtirib olish ozbek oquvchisi uchun ancha qiyin kechadi. Nemis tilidagi qoshma otlar bir nechta komponentlardan tashkil topgan bolsa, uning grammatik rodi u sozlarning eng oxirgisi orqali belgilanadi. Masalan:

Die Tasche n + das Tuch = das Taschentuch.

Tilshunoslikda so'zlarni turkumlarga ajratish borasida yagona fikr yo'q. Olimlar so'z turkumlarini klassifikatsiya qilishda turli tomondan yondashib, ularni har xil turkumlarga ajratishgan. Izlanishlar tufayli so'z turkumlarini o'n ikki guruhga ajratishgan. Har ikkala tilda ham ot asosiy va eng keng tarqalgan so'z turkumlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Otlarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri ularning har qanday gap bo'lagi vazifasini bajarib kelishidir.

Nemis va o'zbek tillaridagi otlarga bir qator grammatik kategoriyalar xos bo'lib, ularning ayrimlari bir-biriga mos tushsa, boshqalari bir tilida mavjud bo'lib ikkinchisida yo'q. Masalan, otlarda son, kelishik, turlanish kabi kategoriyalar qiyos qilinayotgan har ikkala til uchun ham xos bo'lsa, artikl va rod kategoriyasi faqat nemis tili uchun, egalik kategoriyasi esa o'zbek tili uchun xos.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. M., 1966.

Admoni V.G. Sintaksis sovremennogo nemetskogo yazыka. L., 1973, 358 s.

Ambariumyan R.S. Logiko-semanticheskii i sintaksicheskii aspekt teorii valentnosti. AKD, M., 1977, 22 s.

Balyakova N.A. Chujoe slovo vo vneshney i vnutrennoy rechi. SPb, 2005, 164 s.